



USMON AZIM SHE'RIYATIDA FALSAFIYLIK VA SHAXSIYLIK UYG'UNLIGI

Ortiqova E'tibor Shuhratovna

QarshiDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Usmon Azim - zamonaviy o'zbek she'riyatida avtopsixologizm, ekzistensial qidiruv, inson ongi va ruhiyati masalalarini poetik salohiyat bilan ifoda etgan taniqli shoirlardan biridir. Uning she'rlarida insonning ichki olami, ma'naviy iztiroblari, vaqt, hayot va yo'qlik haqidagi falsafiy mulohazalar shoirning shaxsiy kechinmalari bilan uyg'un tarzda uyg'unlashgan. Mazkur maqola falsafiy va shaxsiy elementlarning she'riy obrazlar orqali qanday ifoda topgani tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *falsafiylik, hayot, mavjudot, inson taqdiri, vaqt, shaxsiylik, psixologik holat, insonning o'zini anglash, vayronalik hissi, shaxs va olam.*

Аннотация. *Усмон Азим — один из наиболее ярких представителей современной узбекской поэзии, в творчестве которого авtopsихологизм, экзистенциальные поиски, проблемы человеческого сознания и духовности находят глубокое поэтическое воплощение. В его стихотворениях внутренний мир личности, духовные страдания, философские размышления о времени, жизни и небытии органично переплетаются с индивидуальными переживаниями автора. В данной статье рассматривается, каким образом философские и личностные элементы получают художественное выражение через систему поэтических образов.*

Ключевые слова: *философичность, жизнь, бытие, человеческая судьба, время, личность, психологическое состояние, самопознание, ощущение разрушенности, человек и мир.*

Annotation. *Usmon Azim is one of the most distinguished representatives of modern Uzbek poetry, whose works embody autopsychologism, existential quest, and the issues of human consciousness and spirituality with profound poetic insight. In his poems, the inner world of the individual, spiritual anguish, and philosophical reflections on time, life, and nonexistence are organically interwoven with the poet's personal experiences. This article explores how philosophical and personal elements are artistically expressed through the system of poetic imagery.*

Keywords: *philosophical depth, life, existence, human destiny, time, individuality, psychological state, self-awareness, sense of desolation, human and the universe.*

Adabiyotda inson ruhiyatining eng nozik va chuqur qatlamlarini ochib berish, o'quvchini o'ziga qaratib, ichki kechinmalar va tajribalarga qiziqtirish borasida lirik janr ustivorlik qiladi. Bu janr orqali insonning ichki olamini, psixologik holatini, ong va tushuncha jarayonlarini tahlil qilish mumkin.



O'zbek she'riyatida bu yo'nalish ayniqsa, mustaqillik yillarida sezilarli darajada rivoj topdi. Usmon Azim, Shavkat Rahmon, Jamol Kamol kabi shoirlar ijodida shaxsiy kechinmalar, ichki qarama-qarshiliklar, ontologik izlanishlar asosiy poetik tamoyilga aylandi. "Lirikada voqelik lirik subyekt his-tuyg'ulari orqali akslanadi, uning uchun badiiy nutq obyekti emas, subyekt birlamchidir"⁶¹. Ularning asarlarida "men" obrazining kuchayishi, ruhiy tahlilga urg'u berilishi, hayot voqeliklarini individual idrok orqali anglash harakati kuzatiladi. Bu holat yangi o'zbek she'riyatining murakkablikka, ichki anglashga, ruhiy tahlilga yo'naltirilganligi bilan bog'liq.

Usmon Azim — o'zbek adabiyotining so'nggi davrdagi taniqli va betakror shoirlaridan biri bo'lib, uning she'riyatida avtopsixologik talqin muhim o'rin tutadi. Avtopsixologizm — bu badiiy asarda muallifning o'z ichki dunyosi, hissiyotlari, ruhiy holatlari va fikriy iztiroblarini ifodalash uslubidir. Usmon Azimning she'rlarida bu usul juda mohirona qo'llanilgan va uning she'riyatining asosiy belgilaridan biri hisoblanadi.

Usmon Azim she'riyatida falsafiylik – hayot, mavjudot, inson taqdiri, vaqt va abadiyat kabi universal masalalarga nisbatan fikr yuritish, ularni she'riy obrazlar orqali ifodalash sifatida namoyon bo'ladi.

Biroq bu falsafiy qarashlar abstrakt shaklda emas, balki shoiming shaxsiy ruhiy kechinmalari, "Men" pozitsiyasi bilan chambarchas bog'liq holda ifodalanadi. Falsafiy mazmun – umumiy hayotiy haqiqatlar haqida, Shaxsiylik – ushbu haqiqatlarning shoir tafakkuridagi aksidir.

“Yo'qlikdan qo'rqmaganlar adashar...”

Yo'qlikdan qo'rqmaganlar adashar,

Meni qo'rquv saqlab qoldi, balkim.

Hayot bitmas kitob emas, menga,

Faqat bitta sahifa — achinchim.⁶²

Bu she'rda o'lim (yo'qlik) va hayot (bitmas kitob) masalalari falsafiy nuqtai nazardan ko'tarilgan. Biroq shoir ularni to'g'ridan-to'g'ri mulohaza shaklida emas, balki o'z qalbidan o'tkazib, shaxsiy hissiyoti bilan bayon etadi.

“Faqat bitta sahifa — achinchim” degan satr uning shaxsiy kechinmalari, hayotga nisbatan fatalistik va ekzistensial munosabatini ko'rsatadi. Bu she'rda shoir “yo'qlik” va “hayot” kategoriyalari orqali ontologik muammo – mavjudlikning ma'nosi, insonning yashash sababi va yagona hayot sahifasi – “achinch” kabi falsafiy gaplarni ishlatadi. Ammo bu qarashlar shaxsiy kechinmalar, lirik subyektning real iztiroblari orqali berilgan.

“Kim bo'ldim? Nega kechikdim?”

⁶¹ Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent. "Akademnashr" nashr, 2013 yil, 153 bet

⁶² Azim, Usmon. Tunlar va tuyg'ular. — Toshkent: "Sharq", 2001. 56 bet



Kim bo'ldim? Nega kechikdim?

Kecha kechikdim, ertaga kechikdim.

Olam bilan o'lchadim o'zimni,

O'zim bilan o'lchadim olamni.⁶³

Bu satrlar — insonning o'zini anglash, vayronalik hissi, vaqt, shaxs va olam o'rtasidagi munosabat haqidagi falsafiy tahlilni ifodalaydi.

Biroq bunda ham murojaat subyektiv, lirik "Men" fikr yuritmoqda.

– "Kim bo'ldim?" — shaxsiy tanish so'roq,– "Olam bilan o'lchadim o'zimni" — falsafiy qarash. Shuningdek, bu she'rda insonning kechikish, o'ziga nisbatan tanqid va taraddud hislari ham aks etgan. Bu shaxsiylikni oshkoralashtiruvchi muhim belgi. Bu she'rda shoir "bo'lish" va "kechikish" kabi ekzistensial tushunchalarni shaxsiy ongda kechayotgan holatlar orqali talqin qiladi. "Kim bo'ldim?" — shaxsiylikning eng yuqori bosqichi – o'zligini anglash muammosi; "Olam bilan o'lchadim o'zimni" — falsafiy qarash, ammo shaxsiy rakurs orqali. Bu satrlar shoirning o'zini nafaqat ijtimoiy, balki mavjudot darajasidagi qiymat sifatida ko'rishga intilishidir. Avtopsixologizm bu yerda insonning ruhiy o'ziga qaytishi bilan namoyon bo'ladi.

"Sog'inch bu — hayotga ichida yig'lash"

Sog'inch bu — hayotga ichida yig'lash,

Kimnidir emas — o'zingni qidirish.

Ko'z tikib qo'rqinchli qorong'ilikka,

Yorug'lik deb, yonib bitish⁶⁴

Bu she'rda "sog'inch" oddiy ruhiy holat sifatida emas, balki ontologik kategoriya, ya'ni mavjudotning asosiy mohiyati sifatida qaraladi. Inson hayotga yig'lar ekan – u holda hayotning o'zi muhabbat, og'riq va qidiruvdir. Shoir "yorug'lik deb yonib bitish" obrazi orqali shaxsiy intilish, ma'no qidirish, va ruhiy fidokorlik falsafasini yaratadi. Bu falsafa emas, faqat ijodkor qalbida pishib chiqqan shaxsiy falsafadir. She'rda "sog'inch" orqali insonning ichki bo'shlig'i, ma'naviy yetishmovchiligi ifoda etilgan. Bu faqat tuyg'u emas, balki falsafiy holatdir. "O'zingni qidirish" — avtopsixologik jarayon, "Yorug'lik deb, yonib bitish" — qurbonlik falsafasi, yurak bilan faxmlagan ruhiy safar. Bu yerda shoir o'zini insoniy hissiyotlar ichidagi ma'no izlovchi shaxs sifatida ko'rsatadi.

Usmon Azim she'rlarida ichki monolog (o'ziga-o'zi murojaat qilish) usuli juda ko'p uchraydi. Bu orqali u o'zini tushunishga, borliq va zamon haqida fikr yuritishga intiladi. Bunday she'rlarda u hayotning beqarorligi, vaqtning qadri, insonning ma'naviy mas'uliyati kabi mavzularni ichki kechinmalar orqali ochib beradi.

⁶³ Azim, Usmon. Tunlar va tuyg'ular. — Toshkent: "Sharq", 2001. 56 bet

⁶⁴ Azim, Usmon. Tunlar va tuyg'ular. — Toshkent: "Sharq", 2001. 66 bet



Usmon Azim she'riyatida shaxsiy kechinmalar keng falsafiy umumlashmalarga aylanadi. Uning shaxsiy qayg'usi hamma uchun tanish tuyg'ularni aks ettiradi. Shu jihatdan, uning she'rlari avtobiografiklikdan kengroq xalq ruhiyatining ifodalaydi.

Shoir o'zining ichki holatlarini to'g'ridan-to'g'ri aytishdan ko'ra, ko'pincha tabiat manzaralari, bolalik xotiralari, inson ruhiyatini ifodalovchi ramzlar orqali ifodalaydi. Masalan, qish — yolg'izlik, bahor — umid, quyosh — ma'rifat kabi obrazlar uning ruhiy holatining ifodasiga aylanadi.

Usmon Azim she'rlaridagi lirik qahramon: o'z ruhiga nazar tashlaydi, kechagi va bugungi kundagi qarama-qarshiliklarni his etadi, hayotning ma'nosi haqida o'ylaydi.

Kategoriya	Falsafiylik	Shaxsiylik
Mazmun	Hayot, o'lim, vaqt, ma'no qidirish, yo'qlik	Qo'rquv, kechikish, sog'inch, hayotga norozi holat
Ifoda	Simvol, metafora, ikkilanuv, antiteza	Men" pozitsiyasi, ichki so'roqlar, tan olmaslik
Funksiya	Umuminsoniy masalalarga fikriy yondashuv	Ularni qalb orqali ifodalash, ruhiy jarayon sifatida ko'rsatish

Usmon Azim she'riyatida falsafiy mulohaza va shaxsiy kechinma bir-birini to'ldiruvchi poetik tuzilmada namoyon bo'ladi. She'rdagi falsafa — abstraksiya emas, insonning ruhiy jarayonida pishib chiqqan ma'nodir. Shu bois, uning she'riyati inson ruhiyati orqali olamni anglashga urinish sifatida qadrlanadi.

Poetik element	Falsafiy funktsiya	Shaxsiy funktsiya
Yo'qlik / hayot	Mavjudlik falsafasi	Qo'rquv, iztirob
Kechikish	Vaqt va anglash muammosi	O'zini ayblash, izlanish
Sog'inch	Ma'naviy qidiruv	O'zini topish istagi
Olam o'zim	Inson olam munosabati	Shaxsiy o'zini anglashga urinish

Shoir she'riyatida falsafiy mazmun va shaxsiy lirizm bir-biriga chambarchas bog'langan. Shoir uchun falsafa – nazariy emas, jonli his etiladigan ruhiy jarayondir. Uning she'rlaridagi har bir falsafiy gap "Men" ni istagan, izlagan, jonli, shubhali va inongan insonning so'zidir. She'riy obrazlar orqali nafaqat shaxsiy drama, balki zamonaviy insonning ichki ziddiyatlari, unga xos falsafiylik va ontologik izlanishlar ifoda topadi.

Xulosa: Usmon Azim — o'zining kuchli lirik "Men"i, inson ongida kechadigan ruhiy drammatizm, mustaqil fikr va falsafiy mazmunga ega obrazlari bilan avtopsixologik lirikaning yetuk namoyonlaridan hisoblanadi. Uning she'rlarida real





hayotdagi voqeliklardan ko'ra shu voqelikni his qilish, ruhiy idrok qilish ustun turadi. Usmon Azim she'riyatida avtopsixologik talqin orqali shoir: o'z shaxsiy kechinmalari orqali umuminsoniy tuyg'ularni ifodalaydi, she'rni ruhiy tozalanish va falsafiy mushohada vositasiga aylantiradi, o'zini anglashga va o'quvchini ham o'zi haqida o'ylashga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Азим, Усмон. Тунлар ва туйғулар. — Тошкент: “Шарқ”, 2001.
2. Азим, У. Сен кетгансан. Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 2004.
3. Karimova, D. Usmon Azim lirikasida metafora va ruhiy izlanishlar. // Adabiy tahlil, 2023, №1.
4. Mahmudov, S. O'zbek lirikasida avtopsixologizm: poetik tendensiyalar. // O'zMU "Filologiya fanlari" to'plami, 2022.
5. Yunusov, U. Poeziya va falsafa: zamonaviy adabiyotda ma'no izlanishi. — Toshkent: Adabiyot va san'at, 2019.
6. Qurbonov, A. Badiiy tafakkur nazariyasi. — T.: Fan, 2009